

NAVOIY VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

**2022- YIL
YANVAR-DEKABR**



Dastlabki ma'lumotlar

XIZMATLAR SOHASI

Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari
hajmi

9 247,2
mlrd. so'm

Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan bozor
xizmatlari
hajmi

8 851,5
ming so'm

Xizmatlar
sohasida kichik
biznesning ulushi

58,1 %

Xizmatlar soha-
sidagi korxona va
tashkilotlarning ulushi

64,8 %

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida xizmatlar sohasi salmoqli o'ringa ega. O'zbekistonda eng tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biri, uchinchi darajali sektor – xizmatlar sohasi hisoblanadi.


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 787,6 mlrd. so'mga** oshib, **9 247,2 mlrd. so'mga** yetdi.

Taqqoslama ekvivalentda 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga (**118,3 %**) nisbatan o'sish sur'ati **114,2 %** ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida ushbu xizmatlarning ulushi **31,5 %** ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlar (**21,0 %**), transport xizmatlari (**16,2 %**), yashash va ovqatlanish xizmatlari (**6,3 %**), shuningdek, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar bo'yicha (**4,7 %**) ham qayd etildi.

Sog'liqni saqlash sohasi bo'yicha xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **1,4 %** ga yetdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da (2022- yil yanvar-dekabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmi o'sishining asosiy omili yashash va ovqatlanish xizmatlari **63,7 %** ga, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – **21,1 %** ga, ta'lim sohasidagi xizmatlar – **20,4 %** ga, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar – **19,3 %** ga, moliyaviy xizmatlar – **18,7 %** ga, shuningdek, savdo xizmatlari – **11,6 %** hissalariga to'g'ri keldi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirma narxlardagi o'sish sur'ati yuqori bo'lgan xizmat turlari, %da



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-dekabr)	Hajmi, mlrd. so'm		O'sish sur'ati, % da
	2021- y.	2022- y.	
Xizmatlar – jami	7 459,6	9 247,2	114,2
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	288,1	349,8	121,1
Moliyaviy xizmatlar	1 598,0	1 939,3	118,7
Transport xizmatlari	1 337,6	1 497,9	105,2
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	1 109,7	1 279,5	107,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	296,4	581,6	163,7
Savdo xizmatlari	2 313,1	2 912,7	111,6
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	156,4	185,0	111,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	273,8	348,2	120,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	99,2	134,4	119,3
Ijara xizmatlari	120,5	142,1	110,7
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	117,2	147,4	111,0
Shaxsiy xizmatlar	180,3	245,5	111,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	394,0	433,9	103,4
Boshqa xizmatlar	285,0	329,4	108,4

Savdo xizmatlari
(yanvar-dekabr)




2022-yilning
yanvar-dekabr
oylarida
ko'rsatilgan bozor
xizmatlarining
umumi hajmida
savdo xizmatlari
ulushi

O'sish sur'ati,
% da



Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm



Savdo xizmatlarining tarkibi, % da
(2022- yil yanvar-dekabr)

1. Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar.
2. Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda.
3. Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari).




NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Hududlar kesimida savdo xizmatlari (2022- yil yanvar-dekabr)	O'sish sur'ati, % da
Navoiy sh.	116,5
Zarafshon sh.	119,1
G'ozg'on sh.	111,0
Karmana t.	111,2
Konimex t.	117,2
Qiziltepa t.	113,2
Navbahor t.	110,3
Nurota t.	107,2
Tomdi t.	111,2
Uchquduq t.	112,1
Xatirchi t.	114,8

Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdo-ga bo'linadi.

Hududlar kesimida savdo xizmatlari hajmi, mlrd. so'm (2022- yil yanvar-dekabr)



Transport xizmatlari (yanvar-dekabr)

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida transport xizmatlari hajmi **1 497,8** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan bu xizmat turining o‘sishi **5,2 %** ni tashkil etdi.


*O’sish sur’ati,
% da*



*Xizmatlar hajmi,
mlrd. so‘m*




*Turlari bo‘yicha transport xizmatlarining
tarkibi, % da
(2022- yil yanvar-dekabr)*



- Quruqlikdagi transport va quvurlar orqali yetkazib berish bo‘yicha xizmatlar
- Omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlari
- Pochta va kuryerlik xizmatlari

NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI




2022- yilning yanvar-dekabr oylarida Zarafshon shahri (**18,4 %**) va G'ozg'on shahrida (**17,2 %**), shuningdek, Nurota tumanida (**10,6 %**) transport xizmatlari bo'yicha yuqori o'sish qayd etildi.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 279,5** mld. so'mga yetdi.


2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan ushbu xizmatlar **7,7 %** ga o'sdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **13,8 %** ni tashkil etdi.

*Tashish turlari bo'yicha
avtomobil transporti xizmatlarining
tarkibi, % da*




Avtomobil transporti
xizmatlari
(yanvar-dekabr)

*O'sish sur'ati,
% da*



*Xizmatlar hajmi,
mld. so'm*



Moliyaviy xizmatlar (yanvar-dekabr)

Moliyaviy xizmatlarning hajmi 2021- yilga nisbatan **341,3** mlrd. so‘mga oshdi va joriy yilning yanvar-dekabr oylarida **1 939,3** mlrd. so‘mga yetdi. Jami ko‘rsatilgan xizmatlarda moliyaviy xizmatlarning ulushi **21,0** %ni va o‘sish sur’ati **118,7** % ni tashkil etdi.

*O’sish sur’ati,
% da*



*Xizmatlar hajmi,
mlrd. so‘m*



*Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da
(2022- yil yanvar-dekabr)*



- Sug‘urta va nafaqa ta’minoti bo‘yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar
- Sug‘urta bo‘yicha xizmatlar
- Yordamchi moliyaviy faoliyat

NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


**Hududlar kesimida
moliyaviy xizmatlar
(2022- yil yanvar-dekabr)**

**O'sish sur'ati,
% da**

Navoiy viloyati	118,7
Navoiy sh.	114,3
Zarafshon sh.	126,6
G'ozg'on sh.	119,2
<i>tumanlar</i>	
Karmana t	126,3
Konimex t.	121,9
Qiziltepa t.	128,2
Navbahor t.	123,0
Nurota t.	131,1
Tomdi t.	119,8
Uchquduq t.	132,6
Xatirchi t.	120,5

Bank tizimining moliyaviy barqarorligini isloh qilish hamda mustahkamlash, pul-kredit siyosatini erkinlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash mexanizmini takomillashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlashni yanada kengaytirish, real vaqt rejimida xizmatlar ko'lamin kengaytirish (Internet-banking, mobil banking) moliyaviy tashkilotlarning so'nggi elektron to'lov texnologiyalarini joriy etish tarmoqlari moliyaviy xizmatlarning o'sishiga ta'sir ko'rsatdi.

**Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar hajmi, mlrd. so'm
(2022- yil yanvar-dekabr)**



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (yanvar-dekabr)

2022- yilning yanvar-dekabr oylari-
da aloqa va axborotlashtirish xizmat-
lari hajmi **349,8** mlrd. so‘m darajasida
qayd etildi va 2021- yilning yanvar-
dekabriga nisbatan o‘sish sur’ati
121,1 % ni tashkil etdi.


*O’sish sur’ati,
% da*



*Xizmatlar hajmi,
mlrd. so‘m*



*Aloqa va axborotlashtirish
xizmatlarining tarkibi, % da
(2022- yil yanvar-dekabr)*



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2022- yil yanvar-noyabr)

Hajm,
mlrd. so‘m

O‘sish
sur’ati, %
da

	Hajm, mlrd. so‘m	O‘sish sur’ati, % da
Navoiy viloyati	349,8	121,1
Navoiy sh.	108,7	119,5
Zarafshon sh.	26,7	125,3
G‘ozg‘on sh.	2,1	124,4
Karmana t.	37,2	120,3
Konimex t.	9,9	119,3
Qiziltepa t.	41,6	116,2
Navbahor t.	31,5	125,1
Nurota t.	23,1	123,5
Tomdi t.	4,1	117,8
Uchquduq t.	11,8	129,4
Xatirchi t.	53,1	122,7


2022- yilning yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining eng katta hajmi Navoiy shahrida qayd etildi. O’tgan yilning mos davriga nisbatan mazkur hududda ushbu turdagи xizmatlar hajmi **17,9** mlrd. so‘mga oshib, **108,7** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar (yanvar-dekabr)

O'sish sur'ati,
% da



Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm




Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2022-yil yanvar-noyabr)

Hajm,
mlrd. so'm


O'sish sur'ati,
% da

	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	348,2	120,4
Navoiy sh.	243,2	114,9
Zarafshon sh.	11,6	117,2
G'ozg'on sh.	0,04	115,0
tumanlar		
Karmana t	35,7	192,3
Konimex t.	5,3	112,0
Qiziltepa t.	12,3	107,4
Navbahor t.	9,0	119,5
Nurota t.	7,4	108,6
Tomdi t.	1,7	107,4
Uchquduq t.	8,0	115,2
Xatirchi t.	14,0	115,7

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (yanvar-dekabr)




Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi, mlrd. so'm (2022- yil yanvar-dekabr)



Sog'liqni saqlash sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmida Navoiy shahri katta qismni – **64,6 %** ni egallaydi. 2022- yil yanvar-dekabr oylarida Qiziltepa tumani (**24,5 %**), Navoiy shahri (**23,0 %**), Karmana tumani (**17,0 %**) va Nurota tumani (**13,3 %**) da sog'liqni saqlash xizmatlarining yuqori o'sishi qayd etildi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (yanvar-dekabr)


O'sish sur'ati,
% da



Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm




Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish xizmatlarining o'sish sur'atlari (2022- yil yanvar-dekabr)




Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-dekabr)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	9 247,2	114,2
Navoiy sh.	3 606,0	115,2
Zarafshon sh.	1 137,9	113,4
G'ozg'on sh.	23,8	115,1
<i>tumanlar:</i>		
Karmana t	1 332,5	113,3
Konimex t.	215,5	113,5
Qiziltepa t.	818,9	114,2
Navbahor t.	536,3	113,8
Nurota t.	391,1	113,1
Tomdi t.	121,3	112,0
Uchquduq t.	310,5	114,6
Xatirchi t.	753,4	113,7

**Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan bozor
xizmatlarining
asosiy ko'rsatkichlari
(yanvar-dekabr)**

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **8 851,5** ming so'mga yetdi. 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **111,9 %** ni tashkil etgan.



**Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi, ming so'm
(2022- yil yanvar-noyabr)**



Aholi soni aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning rivojlanishi ko'rsatkichiga muhim ta'sir ko'rsatadi. Masalan, aholi soni nisbatan kam bo'lgan G'ozg'on shahri va Tomdi tumanida aholi jon boshiga ko'rsatkichlar aholi zinch joylashgan Xatirchi va Qiziltepa tumanlariga qaraganda yaxshiroq ko'rindi.

Yuqori o'sish sur'atlari G'ozg'on shahrida (**13,8 %**) va Zarafshon shahrida (**12,5 %**), shuningdek, Qiziltepa (**12,3 %**) va Uchquduq (**12,2 %**) tumanlarida kuzatildi.

Aholi jon boshiga xizmatlarning o'sish sur'ati, % da (2022- yil yanvar-dekabr)



□ 2021 y. □ 2022 y.

2023- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

16 325 birlik

1 546 birlik

2021- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o‘sishi


2021- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati

110,5 %


2023- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



2023- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumot
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



Xizmat ko‘rsatish sohasidagi kichik tadbirkorlik subyektlari
(yanvar-dekabr)



Xizmatlar sohasi statistikasi bo‘limi
Tel.: 79-223-63-31